



## TAKRORLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI (Rauf Parfi lirikasi misolida)

Gopirova Xurshida To'liqjonovna

Farg'ona davlat universiteti Magistratura: lingvistik (o'zbek tili)

2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6625518>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> May 2022

Accepted: 02<sup>nd</sup> June 2022

Online: 08<sup>th</sup> June 2022

### KEY WORDS

lingvopoetika, takror,  
anafora, epifora, nazm,  
rifma, konsonans,  
assonans, alliteratsiya,  
fonostilistika, urg'u,  
bo'g'in, musallas, ritm,  
uslubiy figura.

Ma'lumki, asar tili xoh u badiiy asar tili bo'lsin, xoh she'riy asar tili bo'lsin o'zining hamma imkoniyatlarini to'laligicha ko'rsata oladigan, shoir yoki yozuvchining tafakkur darajasiga ko'ra mana shu imkoniyatlarni bus-butunligicha ishga solish mumkin bo'lgan o'ziga xos san'at maydonidir. Mana shu maydon imkoniyatlari chek-chegarasiz bo'lgani holda undan mohirona foydalanish, avvalo ijodkorning badiiy saviyasiga, til imkoniyatlariga, qolaversa, muallif shaxsiyatiga bog'liq. So'z bu – san'at quroli. Uni qar darajada yo'naltirish muallif uslubiga bog'liq. So'zni san'at darajasiga ko'tara olish muallifning til vositalarini qay o'rinda ishlata olishining asosiy omil hisoblanadi. Ijodkorning so'z san'atini mohirona namoyon qilishida unga umumxalq til boyliklari, imkoniyatlari yordamga keladi. Ijodkorimiz Rauf Parfi so'zni san'at darajasiga olib chiqib, tilning barcha imkoniyatlaridan unumli foydalana

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada tilshunosligimizdagi takrorlarning lingvopoetik xususiyatlari Rauf Parfi she'riyati misolida tahlilga tortilgan.*

olgan. Uning she'rlarini bir marta o'qib kitobxon tushunmasligi, uni qabul qila olmasligi mumkin. Uning she'rlarini tushunish uchun kuchli tafakkur va aql idrokka ega bo'lish bilan birgalikda, qalban ularni his etish darkor. Shoir bir vaqtda falsafiy fikrlarga yo'g'rilgan she'rlari bilan birgalikda kitobxonga yetib boradigan oddiy va sodda tilda ham ijod qiladi. Shoirning bu ijod mahsullarini ko'proq takrorlarda kuzatamiz.

Ma'lum bir uslubda qo'llayotgan so'zimiz ma'nosi subyektga tushunarli bo'lishida uni yanada ravshanlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. So'zda anglashilayotgan ma'noni alohida ajratib ko'rsatish, ta'kidlash, kerak bo'lganida qaytatdan qo'llash natijasida bunga erishishimiz mumkin bo'ladi. Mana shundan hislatlarni o'zida jam etgan uslubiy figuralardan biri takroridir. Takror o'zbek adabiyotida keng qo'llanadigan lingvopoetik vositalardan



biridir. Takror – badiiy uslubda eng faol qo'llanadigan stilistik usullardan biridir. Bu haqida A. Mamajonov shunday: "Takror, asosan, badiiy nutqqa xos sintaktik-stilistik ifoda usullardan biri. Til yoki nutq birliklarini ataylab, aynan tarorlash orqali avtor o'z fikrining ta'sir kuchini oshirishga, his-tuyg'ularini bo'rttirib ifodalashga erishadi", – deydi. [2, 18]

"Badiiy uslubda takrorning vazifasi faqatgina ma'lum narsa-hodisani yoki holatni ajratib, ta'kidlab ko'rsatish bilangina chegaralanmaydi. Badiiy asarda barcha uslubiy vositalarda bo'lgani kabi, takrorning zimmasiga ham til birliklariga emotsional bo'yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi yuklanadi. Agar imkoniyat bo'lsa, shu vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda muallifning yoki asar qahramonining voqelikka subyektiv munosabatini ham bera olishi kerak." [1, 147]

Nazmda so'zning qudratini ko'rsatish alohida individuallikni yuzaga chiqarganidek, she'riyatda takrorlarni qo'llash beqiyos jozibadorlik va alohida o'ziga xos go'zallik kasb etadi. Takrorlar til birliklarining qay o'rnida kelishiga qarab ilmiy adabiyotlarda bir necha turlarga bo'linadi: anafora, epifora, alliteratsiya, assonans, konsanans, rifma(qofiya) va hakoza.

Rauf Parfi ijodida ko'proq takrorning anafora, epifora va rifma turlari uchraydi. Ular shoir ijodidagi takrorlarning eng faollaridir. Bundan tashqari takrorlarni bir necha tizimli turlarini ham uchratishimiz mumkin.

Anafora – yunonchada "oldinga, yuqoriga chiqish" degan ma'nolarda keladi. Anafora so'z yoki so'z birikmalarining she'riy misralar boshida takrorlanishi, so'z takrorining xususiy ko'rinishiga aytiladi.

Anafora ma'lum bir fikr, hatti-harakat, holat va his-tuyg'ularni ta'kidlab, alohida ko'rsatish uchun hizmat qiladi. U she'rning jozibasini oshirib, kuyga solib, xushohangligini tabiiy ravishda ta'minlaydi.

Sintaktik stilistik vositalar ichida grammatik funksiyasining kengligi, ifodaliligi va ta'sirchanligi, qulayligi hamda ravonligi bilan alohida ajralib turuvchi figura anaforadir.

Quyida ijodkorimiz lirikasida uchraydigan ba'zi anaforalarni ko'rib chiqamiz. Anafora berilgan she'rdagi g'oya mazmunini ta'kidlash, qayta-qayta tushuntirish, tasvir obyektiga e'tiborni tortish, ko'tarinkilik va jo'shqinlikni kashf etish maqsadida qo'llangan:

MENING OTAM ODAM, MOMOM HAVODIR,  
Mening Turkistonim yorilgan yerim.

Mening farog'atim ulug' jafodir,  
Mening yetim bolam – sebgili she'rim. [5, 271]

Tavsif etilayotgan manzara mazmunan kuchaytirib boriladi, takror orqali ma'no kuchaytiriladi. Keltirilgan parcha anaforaning yorqin namunasidir. She'r misralari boshida takror qo'llangan mening so'zi anaforani hosil qilish bilan birga, she'rning ta'sir kuchini yanada oshirgan. Anafora qat'iy tizimli takrorlardan biridir.

Rauf Parfi she'riyatida so'z birikmasi hatto gap holatidagi anaforalar ham uchraydi. Shuni nazarda turgan holda shoir she'riyatini til birliklarining ifodalanishiga ko'ra quyidagicha turlariga o'rgandik:

1. So'z shaklidagi anafora:

Oftob farzandidir oltin dalalar,

Oftob soqchi sochar bosh uzra balqib.[ 7, 343 ]



Takrorlanib kelayotgan soʻzlarning qaysi turkumga mansubligiga qarab soʻz shaklidagi anaforalarni ot takrori, feʼl, olmosh, sifat takrori kabilarga boʻlish mumkin.

2. Soʻz birikmasi shaklidagi anafor:

KULRANG BULUT KEZINADI JIM,

Kulrang bulut oʻxshar uyqumga. [5, 53]

3. Gap koʻrinishidagi anafora:

XATO QILDIM, SEVGILIM,

Xato qildim beomon. [5, 188]

Koʻrib turganimizdek anaforalar bir-birini quvvatlamogʻda, toʻldirmogʻda. ijada, maʼnoni kuchaytirib, sheʼrning estetikasini, gʻoyasini hamda lingvopoetik xossalarini yoritishga xizmat qilmogʻda.

Epifora – yunoncha “qoʻshimcha” degan maʼnoni berib, takrorning xususiy koʻrinishlaridan biri hisoblanadi. Soʻz oxirida unli, undosh tovushlarning sheʼr misralaridagi soʻz yoki soʻz birikmalarining va jumlaning takrorlanishi epiforadir. “Epifora asosan yozma nutqqa xos, anafora esa ogʻzaki va yozma nutqda qoʻllanadi.” [7, 209]

Shu sababdan sheʼriyat epiforaga koʻp murojaat qiladi. Epiforik takrorlangan nutq boʻlagining maʼnosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Epiforik takror birmuncha keng maʼnoda tushuniladi. [2, 23]

Epifora sharq poeziyasida keng qoʻllaniladi. [6, 56]

Nurafshon koʻklar ostinda omidir jonli insonlar,

Chechakli yerlar ustinda xazon vijdonli insonlar,

Bahori porloq olamda koʻzi boʻronli insonlar,

Hayoti Nuhga mingzar, umringiz toʻfonli insonlar. [5, 286]

Ushbu sheʼrda epifora har bir satr tugashida takrorlangan insonlar soʻzining qoʻllanilishi ortidan yuzaga kelgan. Bu

orqali sheʼr mazmunida ohagdoslik, fikr taʼsirchanligi va kuchli taʼkid namoyon boʻlgan. Takror orqali insonning hayotiga murojaat etib, tinglovchiga voqelikni yanda jonliroq tasvirlab bergan. Misralardagi takror ijodkorning his-tuygʻularini, ichki kechinmalarini ochib berib, sheʼrning estetik taʼsirchanligini oshirgan.

Rauf Parfi soʻzga sehr ulashgan ijodkorlardan uning “Sayyod Navo” sheʼrida takrorning goʻzal koʻrinishlarini, turli-tumanlarini bir necha bandlari koʻrinishlarida uchratishimiz mumkin. Shu bilan birga bir vaqtning oʻzida ham vertikal koʻrinishdagi fonopoetik takrorlarni (assonans, alliteratsiya), anaforik takrorlarni, epiforik hamda rifma (yaʼni qofiya) takrorining goʻzal namunasini kuzatishimiz mumkin. Bunday til birliklarini bir joyda birlashtirish Rauf Parfidek ijodkorning mahoratidan dark beradi:

Oncha gunoh, oncha shafqatdurur, yorab,

Oncha ziyon, oncha ragʻbatdurur, yorab,

Oncha qaygʻu, oncha rahmatdurur, yorab,

Oncha bunyod, oncha gʻoratdurur, yorab. [5, 218]

Mazkur band takrorlarni oʻz ichiga olishi bilan jozibadorlik, xush kayfiyat, taʼkid, koʻtarinkilik, ohangdoslik va shu bilan birga musiqiy jilo beruvchi vosita sifatida sheʼrga oʻzgacha jilva baxsh etgan. Berilgan misrada “oncha” anaforik takror, “yorab” epiforik takror bilan birga rifma (qofiya) ni ham yuzaga chiqargan. Rifma – shakllanish xususiyatiga koʻra ohangdoslikka asoslangan fonostilistik vosita sanaladi. Sheʼrdagi epiforadan oldingi soʻzlar qofiyani tashkil etib sheʼrning ritmik tarkibida, intonatsiyasida, semantik-sintaktik bogʻlanishida misraning muhim shaklini bajarib, sheʼrga ohangdoslik va



ta'sir kuchini bergan. Bu esa kitobxonga misralarni esda saqlab qolishiga ko'mak beradi.

She'riyatida takrorning individual qo'llay olishi bilan Rauf Parfi alohida ajralib turadi. Shu sababli she'rlaridagi takroriy so'z yoki birikmalarni she'r misralaridagi joylashish tartibiga ko'ra takrorlarni erkin va qat'iy tarkiblarga ajartishimiz mumkin:

#### 1. Erkin tizimli takror:

Uyg'on, uyg'on, bolam, uyg'ongin ey dil,  
Uyg'ondan iborat uyg'otlik dunyo.

Yoki:

Og'ir-og'ir odimlaydi bu karvon,  
Buyuklar omonat, pastlar omonat,  
Afsuslar omondir, hiyonat omon,  
Raddi balo bo'lur kaslar omonat.  
[3,26-29]

Ushbu parchalarda "uyg'on", "omonat" birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralarda turli o'rinlarda erkin holda takrorlangan. Bu esa erkin tizimli takrorning ko'rinishidir. Bunda birinchi misralarda ona(bu yerda Turkiston nazarda tutilgan) bolasini qalbini, ongini uyg'onishini ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Qolaversa, misralardagi "Uyg'on va uyg'otlik" ishtiyoq san'atining ko'rinishini olib, uyg'on so'zi fe'l so'z turkumi doirasida, uyg'otlik esa sifatga tegishli so'zlarni tashkil etmoqda. Keyingi misramizdagi takror so'zimiz barcha narsalar vaqtinchalik ekanligi mazmunidagi fikrni ifodalagan. Bunday takrorlarning she'r tizimida ifodalanishi badiiy ta'kid sifatida she'rning obrazli va emotsional tus olishiga ko'mak bergan. Takrorlar nazmda so'z qudratini oshirishda unga badiiy jilo berishda ko'malashadi.

#### 2. Qat'iy tizimli takrorlar.

She'r misralarida takrorlar muayyan tartibda va ma'lum ketma-ketlikda qo'llansa, qat'iy takror hisoblanadi:

G'amlar cho'kdi mening qalbinga,  
G'amlar mening do'stu yorimdir. [ 5, 245 ]

Yoki:

Men sizni sevganman, Alloh kechirsin,  
Men sizni sevib o'lganman. [5, 242]  
She'riy parchalardagi "g'amlar", "men" so'zlari qat'iy tizimli takror asosida kelgan. Bu so'zlarning takror kelishi ta'kid ma'nosini berish bilangina emas, balki ko'proq emotsionallikni oshirishga xizmat qilmoqda. Bu ikki so'z mazmunan "tan olish" ifoda semasi yoritmoqda. So'zning qudrati va uning jilosi nazmda namoyon bo'lganidek, takrorning she'riyatda qo'llanishi alohida joziba, o'ziga xoslik qolaversa, individuallik kasb etadi.

Yomg'ir ham tinmadi, uzun kun  
Ivishgan novdalar sindilar.  
Yomg'ir ham tinmadi uzun kun,  
Barglari jon uzib tindilar.  
Deraza ortidan bir juvon  
Qaraydi, ufq ham qoraydi.  
Deraza ortidan bir juvon  
Entikib ko'klarga qaraydi.  
Samoning ko'ksiga qoqilsa,  
Shamolga chiqsaydi otilib. Mayliga  
yomg'irdek yiqilsa,  
Shamolga chiqsaydi otilib.  
Bag'riga olar-ku bo'ronlar,  
Ismsiz hasratni haydarlar.  
Bir imkon shartini aytarlar,  
Bag'riga olar-ku bo'ronlar,  
Yomg'ir ham yinmadi uzun kun. [4]

She'riyatda tovushlar, so'zlar takrori bilan birga gaplar takrori ham muhim ahamiyatga egadir. Mazkur she'rimiz gaplar takrorining bir ko'rinishidir. Rauf Parfi ijodida uchraydigan gap takrorlarining alohida jihatlari bilan ajralib turadi. She'rdagi takrorlarning ta'siri kuchli, ohangdoshligi yuqori, musiqiyliги yoqimliliği kitobxonni o'ziga tortadi, yodda saqlab qolishi osonroq kechadi. Yuqoridagi



she'rimizda "Tashqarida shovullar shamol" misrasi takrorlangan edi, mazkur she'rimizda esa har bir bandda alohida takrorlar yuzaga chiqqan bu esa ijodkorning kuchli mahoratidan dalolat beradi. Bunday har bir banddagi takrorlar emotsional-ekspressivlikni yuzaga chiqarishda, bu takrorlar orqali mazmunni yanada kuchaytirishga erishadi.

Xulosa qilib aytadiga bo'lsak, takrorlar tasvirlanayotgan voqea-hodisaga kitobxon diqqatini tortish uchun, uni bo'rttirib ko'rsatish uchun, asar tilini ohangdor, ta'sirchan va jozibali ifodalab berish uchun hizmat qiladi. Takrorlar tinglovchilarni

osonroq tushunishlari uchun sharoit yaratadi. Uning har bir turini adabiyotimizda o'z o'rne bor. Takrorlar asosan badiiy nutqqa xos sintaktik-stilistik ifoda usullaridan biridir. Takrorlar badiiy adabiyotda keng tarqalgan eng qadimgi stilistik ifoda bo'lib, undan ijodkorlar tasvir etayotgan obyektga bo'lgan subyektiv munosabatlarni ifodalash, unga baho berish, o'quvchi yoki tinglovchining diqqatini tortish maqsadida foydalanadi. Ularning vazifasi nutqni ta'sirchan etish, fikrni konkretlashtirish va eng muhimi, unga tinglovchi yoki o'quvchini ishontirishdek xususiyatlardan iborat.

### References:

1. . Каримов С. Ўзбек тилининг функционал стилистикаси. – Самарқанд: – 2010, 147 - бет.
2. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990, 18 – бет, 23- бет.
3. Rauf Parfi. Sukunat. She'rlar. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. 26, 29 - bet.
4. Rauf Parfi. Ko'zlar. Internet. WWW. ziyouz.com kutubxonasi.
5. Rauf Parfi. Turkiston ruhi. – Toshkent: Sharq, 2013. 271 - bet.
6. Рубайло А.Т. Художественные средства. – Москва: 1961. С.56.
7. Rauf Parfi. Sakina. – Toshkent: Muharrir, 2013. 343 - bet.
8. Sultonsaidova S., Sharipova O'. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: Yurist-media, 2009